

TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM MUHITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Hakimov Abbosxon Oribjon o'g'li

NamDPI o'qituvchisi

abbosxonxakimov730@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada songi yillarda maktabgacha ta'limtashkiloti bolalar rivojlanishiga oid qaror farmonlar xamda maktabgachga tayyorlov guruh bolalarni o'qish savodxonligini rivojlantirishda rivojlantiruvchi ta'lim muxiti xamda markazlarning o'ziga xos tasirini bolalarni kuzatish, rivojlanish xamda muxitning o'ziga xosligi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'qish savodxonligini rivojlantirish xaqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Rivojlanish, muloqot, individuallashtirish, kuzatish, tahlil, rejalashtirish, qo'llash, anglash, shaxs, qiziqish, ehtiyojlar, savodxonlig, o'qish, aqliy.

ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ, РАЗВИВАЮЩЕЙ ГРАМОТНОСТЬ ЧТЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУППЫ

Хакимов Аббосхон Орибжон угли

Преподаватель НамГПИ

abbosxonxakimov730@gmail.com

Аннотация: В данной статье даны постановления за последние годы в дошкольных образовательных организациях о группах развития детей и дошкольной подготовки, об образовательной среде и уникальном влиянии центров на развитие грамотности чтения детей, наблюдения за детьми, развития и уникальности среды на личность и даны сведения о развитии читательской грамотности на основе целенаправленного подхода.

Ключевые слова: Развитие, общение, индивидуализация, наблюдение, анализ, планирование, применение, понимание, личность, интерес, потребности, грамотность, чтение, интеллектуальный.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF EDUCATIONAL ENVIRONMENT DEVELOPING READING LITERACY IN PREPARATORY GROUP CHILDREN

Hakimov Abboskhon Oribjon o'g'li

NamSPI teacher

abbosxonxakimov730@gmail.com

Abstract: *This article provides decrees in recent years in preschool educational organizations about child development groups and preschool preparation, about the educational environment and the unique influence of centers on the development of children's reading literacy, child monitoring, development and the uniqueness of the environment on the individual, and provides information about development reading literacy based on a targeted approach.*

Key words: *Development, communication, individualization, observation, analysis, planning, application, understanding, personality, interest, needs, literacy, reading, intellectual.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida so'ngi yillarda olib borilayotgan tub islohotlar hamda rivojlanishning tezkor sur'atlari fonida maktabgacha ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqini amalga oshirishni ta'minlash, bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotini saqlash va mutahkamlash, shuningdek, umumta'lim muassasalarida bolaning jamiyatga moslashishini va ta'lim olishni davom ettirishga tayyorligini ta'minlash maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadlari [3] hisoblanadi.

Bu maqsadlar negizida bolaning jamiyatga moslashishini va boshlang'ich ta'limga tayyorligini ta'minlash vazifasi turadi. Mustaqillikdan keyingi davrda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularni maktab ta'limiga tayyorlash masalalariga e'tibor qaratildi. Biroq, bu boradagi ishlarning sifati va samaradorligi davr talabiga javob bermasligi, sohadagi mavjud kamchiliklar va muammolarning o'z vaqtida bartaraf etilmaganligi natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorgarlik darajasining me'yorlarga muvofiq kelmasligi kuzatilgan. Bu salbiy holat ta'limning keyingi bosqichlarida o'quvchilarning o'zlashtirishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

2017-yildan boshlab, Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida davlat ijtimoiy siyosatining asosiy e'tibori maktabgacha ta'limga qaratilishi mazkur sohada tub burilishlar yasash davrini boshlab berdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yurtboshimiz tomonidan maktabgacha ta'lim sohasidagi muammolar va kamchiliklar izchil tahlil

etildi, bular qatorida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 47 foizdan ziyodroqqa kamayganligi, mavjud ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasining zamonaviy talablarga javob bermasligi, maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan kadrlar o'rta maxsus ma'lumotga ega ekanligi bois maktabga tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar yetarlicha, zamonaviy talablar darajasida o'tilmayotganligi, ayniqsa, bolalar qamrovining pastligi alohida ta'kidlangandi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida 2017-yil 16-avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda mamlakatimizda milliy genofondni mustahkamlash, yosh avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalash masalalari chuqur tahlil etilib, ta'lim tizimini rivojlantirishning ko'plab yo'nalishlari belgilab berildi. Hususan, maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrovini oshirish borasidagi vazifalar ko'rsatib o'tildi. Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 27,7 % bolalar qamrab olingan bo'lsa, bugungi kunda maktabgacha ta'limga bolalar qamrovi 72 % ga yetkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni[1] va «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-3305-sonli Qaroriga muvofiq maktabgacha ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, bolalarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, maktab ta'limiga tayyorlash sifatini oshirishning barcha jihati belgilab berildi.

Yuqorida qayd etilgan kamchiliklar va muammolarni bartaraf etish, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» tasdiqlandi[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Konsepsiya mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlari belgilash hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga

yoʻnaltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun asos boʻldi.

Natijada 2017-2022-yillarda respublikamizda maktabgacha taʼlim sohasida izchil chora-tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida rivojlantirish markazlarini jihozlash taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning muhim omili hisoblanadi, hamda bola rivojlanishining oʻziga xosligiga doir, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, yaʼni ularning aqliy, ijtimoiy va maʼnaviy yetuklik darajasi nazarda tutiladi. Bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va oʻz gʻoyalarini tajribada sinab koʻrish xohish-istaklariga qaratilgandir. Bunda bolalarda paydo boʻlgan savollarga oʻzlari javob topishiga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Negaki, savolga javob izlash barobarida bolada qiziqish, dalillash va eʼtibor berish avtomatik tarzda faollashadi. Bunda tarbiyachining roli savolni soddalashtirmasdan va bolani koʻp axborot bilan chalgʻitmasdan uni qoniqtiradigan javob topish yoʻllarini birgalashib qidirishdan iboratdir. Rivojlanish markazlaridagi taʼlim jarayonida bolalarning oʻzlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini oʻylab topadiki, unda barchaga birdek koʻrsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda oʻzi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi.

Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tugʻilib qolsa topshiriq va materiallarni oʻzgartirishi yoki moslashtirishi mumkin. Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali boʻlishi va mustaqil faoliyatga boʻlgan istakni keltirib chiqarishi kerak[5].

Rivojlantirish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallar bolaga taaluqli va bolalarning yoshiga mos boʻlishi kerak.

Rivojlantirish markazlari bolalar va kattalar bilan aloqa qilish, ularning birgalikdagi faoliyatini, shuningdek, oʻz-oʻzi bilan shugʻullanish imkoniyatini taʼminlashi kerak. Mavzuli rejalashtirishga koʻra, tarbiyachilar rivojlantirish markazlarini didaktik materiallar va oʻyin jihozlari bilan taʼminlash ustida oʻylashi,

hamda jihozlar bilan to'ldirishi kerak. Markazlarni bolalar va tarbiyachilarning birgalikdagi faoliyati va hunarmandchilik mahsulotlari bilan to'ldirishi mumkin. Har bir markazning maqsadga muvofiq haftaning boshida pedagogning mavzuli rejasiga binoan, materiallar tayyorlanadi va jihozlanadi[5].

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida quyidagi rivojlanish markazlari turlari faoliyati yuritilishi nazarda tutiladi:

1. "Til va nutq" markazi.
2. "Qurish-yasash konstruksiyalash va matematika" markazi.
3. "Syujetli rolli o'yinlar va sahnalasht" markazi.
4. "San'at" markazi.
5. "Ilm-fan va tabiat" markazi.

Har bir rivojlantiruchi markazlari bolalarning nutqini o'stirish va savodxonlikka o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bu jarayon "Til va nutq" markazida didaktik o'yinlar, tematik mavzuli, katta va kichik formatdagi rasmlar, tasviriy materiallarlar, voqealar ketma-ketligini belgilash uchun rasm seriyalari, turli mezonlarga ko'ra guruhlash va boshqalar, bolalar kitoblari kutubxonasi, tematik albomlar, topishmoqlar albomlari, magnit harflar to'plami, "Rasmlı Alifbo" kubiklari asosida amalga oshiriladi. Bu esa bolalarning nutqini rivojlantirish va savodxonlikka o'rgatiladi.

Qurish – yasash konstruksiyalash va matematika markazida bola qurish-yasashni, matematik bilimlarni, muloqotga kirishishni o'rganadi. Shu bilan birga blalarning mayda motorikasi rivojlanadi, bola doimiy harakatda bo'ladi, bilmaganlarini bir-biridan o'rganadi, bir-biriga o'rgatadi. Bu esa bolalarni nutqini grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishiga, ijodiy faoliyatlarini rivojlanishiga, to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatiladi.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish" markazida bolalar o'zlariga tanish bo'lgan ertak-hikoyalarni, voqea-hodisalarni ijodiy sahnalashtirishlari mumkin va shu orqali ularni nutqiy malakalari rivojlanaririladi. Syujetli-rolli o'yinda muayyan vaziyatlarda yashaydigan bolalar guruhda ijobiy shaxslar aro munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi, bolalarni jamiyatda o'zini tutish

madaniyati, do'stona jamoaviy munosabatlar normalari va qoidalarini bajarishga undaydi.

“San’at” markazi bolalarning eng sevimli va har doim bolalar bilan gavjum rivojlantirish markaz hisoblanadi. Bolalar chizishni, loy ishini, kesishni va yasashni yaxshi ko‘radilar. San’at markazining maqsadi bolalarning ijodiy salohiyatini shakllantirish, tasviriyl faoliyatga qiziqishni rivojlantirish, estetik ko‘nikmani, tasavvurni, badiiy va ijodiy qobiliyatlarni, mustaqillikni, faollikni, mayda qo‘l motorikasini shakllantirish va rivojlantirishdir.

Yil davomida o‘yinchoq va qo‘llanmalar bolalarning qiziqish, ular bilan harakat qilish istagini saqlab qolish uchun o‘zgartiriladi, olib tashlanadi va qaytarib qo‘yiladi. Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkilotida har qanday yosh guruhining subyektiv rivojlantiruvchi muhitini yaratishda ta’lim-tarbiya jarayonidagi ishtirokchilarning konstruktiv o‘zaro ta’sirining psixologik xususiyatlarini, maktabgacha ta’lim tashkilotning zamonaviy muhitini loyihalash va ergonomikasini hisobga olish kerak.

“Ilm-fan va tabiat” markazida bolalarning tabiat va dunyo xilma-xilligi haqidagi bilimlarini boyitish uchun sharoit yaratilishi kerak. Ushbu markazda bolalar o‘simliklarni parvarish qilishni o‘rganadilar. uchun ularga sug‘orish idishlari, tuproqni yumshatish uchun tayoqlar, suv purkagich, barglarni artish uchun latta, polizda ishlash uchun kichik vositalar kerak bo‘ladi. Ob-havoning o‘zgarishini kunlik kuzatib borish uchun “Tabiat taqvimi”, tabiat va ekologiya haqidagi barcha zarur tasviriyl, plakat materiallari, bolalarda o‘simliklar va hayvonlar dunyosining xilma-xilligi, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar, tabiiyl merosni asrab-avaylash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ijobiy hissa qo‘shadigan to‘plamlar lozim. Shuningdek, ushbu markazda tadqiqot o‘tkazish uchun joy ajratish mumkin – mini laboratoriya (shunchaki javon). Bu yerga tadqiqot o‘tkazish uchun materiallar joylashtiriladi: lupa, konteynerlar, o‘lchash stakanlari, padnischalar, tayoqlar, naychalar, sug‘orish idishlari, qum, loy, toshlar, yog‘och bloklar va boshqalar. Burchakda suv, qum, havo, magnit va boshqalar bilan tajriba o‘tkazish kartotekasi bo‘lishi tavsiya etiladi[5].

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining ta'lim–tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishda mas'uliyati beqiyosdir. Shu bilan birga pedagoglar nimani, qachon va qayerda kuzatishni hamda bola rivojlanishi va ta'lim olishida nimani baholashni xohlayotganlarini o'zlari tanlashlari muhim. Kuzatishlar natijasida pedagog tomonidan olingan ma'lumotlar unga bola bilan ishlashda amaliyotda qo'llanilgan ta'limiy yondashuv va usullarni mustaqil tahlil qila olishga zamin yaratishi zarur. Bunday baholash pedagogga (shuningdek, otalar va boshqa jalb qilingan mutaxassislariga) bolaning rivojlanishini ko'rish, uning o'rganish va rivojlantirish ehtiyojlarini tushunish va istiqbolda rejalashtirish imkonini beradi[5].

Kuzatishning ikki turi mavjud – rasmiy va tasodifan (norasmiy).

Bolani norasmiy kuzatish orqali unga bu haqida oldindan xabar bermasdan juda ko'p ma'lumot olsa bo'ladi (masalan, bola tabiiy ravishda o'yinga jalb qilinganida). Rasmiy kuzatish bolani asabiylashtirishi yoki g'ayriixtiyoriy yo'l tutishiga olib kelishi mumkin, bola esa boshqa bolalar bilan umuman o'ynamasligi yoki muloqotda bo'lmasligi ehtimoli bor. Rasmiy kuzatish ko'proq bolaning muayyan ko'nikma yoki malakasining rivojlanishini yoki uning bilim va tushunchalarini kuzatib borishga qaratiladi.

Rasmiy va norasmiy tizimli kuzatish bolaning rivojlanishi va hozirgi holatini pedagogik baholash uchun axborot to'plashning asosiy usuli hisoblanadi.

Kuzatish – maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va o'rganishi haqida ma'lumot to'plashning samarali usuli. Monitoring va baholashning maqsadi bolaning individual xususiyatlarini o'rganish va shuning asosida uning shaxsiga yo'naltirilgan o'quv yondashuvini rejalashtirish va amalga oshirishdan iborat. Maktabgacha pedagogik adabiyotlarda ("Early Years" — "Dastlabki yillari", 2013-y.) quyidagi 5 qadamli chizma ta'riflangan. Bu kuzatishlarni o'tkazish uchun sikl bo'lib, dasturni tatbiq qilish sifatini yaxshilashga qaratilgandir:

1-qadam. Kuzatish – axborot yig'ish jarayoni.

2-qadam. Tahlil qilish – kuzatilganlar mazmun-mohiyati haqida savol berish.

3-qadam. Rejalashtirish – ta'lim olish va rivojlanishni davom ettirish uchun keyingi qadamlarni rejalashtirish.

4-qadam. Qo'llash – o'ylangan rejani amaliyotga tatbiq qilish.

5-qadam. Anglash (refleksiyaga erishish) – rejaning unumdorligini baholash.

Pedagogga uning harakatlari oqibatlariga ega (*pedagoglarning o'zi va boshqalar uchun*) ekanligini tushunishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tarbiyachilari faoliyatining muhim jihati bo'lib, ularga yanada maqsadga muvofiq harakat qilishga yordam beradi. Malakali pedagoglar o'z yondashuvi va o'qitish metodikasida nima yaxshi bo'layotgani va nima o'xshamayotganini, nimani yaxshilash va muammolarni qanday hal qilish kerakligi haqida fikr yuritadilar. Kuzatuvlar va bola rivojlanishini baholash natijasida to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida pedagog yosh va rivojlanish sohalari uchun davlat talablariga muvofiq bolaning to'liq rivojlanishini ta'minlash uchun amalda qo'llanilgan o'qitish usullarini ko'rib chiqishi va keyinchalik amaliyotga tatbiq etish uchun o'zgartirishlarni rejalashtirishi mumkin va bu jarayon shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida amalga oshiriladi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bolaning individual va yosh xususiyatlariga qaratilgan hamda har bir bolaning o'quv jarayonida qayerdaligini, har tomonlama rivojlanishi uchun o'quv ehtiyojlari qandayligini hisobga oladi. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish yondashuvining sifati pedagogning kuzatish, ko'rgan va eshitganlarini qayd etib borish, refleksiya va tahlil qilish, rejalashtirish qobiliyatiga hamda butun guruh uchun yagona ta'lim yondashuvlarini qo'llamasdan har bir bolaning kompetensiyalarini qanday rivojlantirishni bilishga ham bog'liq. **Shu** bois, bolalarni qanday kuzatish, bolalar qanday ta'lim olayotgani va rivojlanayotgani haqidagi kuzatuvlarimizni qanday hujjatlashtirish va qaysi refleksiyalar ishini rejalashtirish va tashkil etishda bolalarning qiziqishlari, ehtiyojlari va kuchli tomonlarini yaxshiroq aniqlashga yordam berishini topishga bag'ishlangan. Shunday qilib, asosiy maqsad maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglariga maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishini kuzatish va baholash usullari va vositalarini taklif etish, o'z vaqtida tahlil qilish va ish chora-tadbir va

usullarini aniqlash, bolaning natijalarini va har tomonlama rivojlanishini yaxshilash hisoblanadi.

Kuzatishning maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi yaxshi tashkil etilgan ta'lim muhitlarida bolalarning rivojlanadigan yutuqlarining sifat ko'rsatkichlarini o'rganishdan iborat. Pedagogik nazoratning vazifalari:

- bolaning rivojlanish sohalarini rivojlanishini aks ettiruvchi va uning rivojlanish parametrlarida ifodalanuvchi dalillarni to'plash;
- har bir tarbiyalanuvchining individual rivojlanish trayektoriyasi haqida obyektiv va informatsion tasavvurlar hosil qilish;
- har xil ta'lim turlarini rivojlantirishda bolaning rivojlanishini o'rganish faoliyati;
- ta'lim jarayonini individuallashtirish (jumladan, bolalarni qo'llab-quvvatlash, zarur hollarda uning yakka tartibdagi ta'lim trayektoriyasini yoki pedagogik korreksiyasini tuzish);
- bolalar guruhi bilan ishlashda ta'lim muhitini yaratish (guruh ishlarida bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda);
- ta'lim-tarbiya jarayonining metodik resurslaridan yanada to'liq va maqsadga muvofiq foydalanish imkonini beruvchi o'quv vazifalarining hal etilishi ustidan nazoratni ta'minlash shu bilan birga bolalarning rivojlanishni kuzatishni amalga oshiradi.

Bolaning rivojlanishini kuzatish pedagog faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim sifatini oshirish vositasi sifatida foydalaniladi va xizmat qiladi:

***Har bir bolaning qiziqishlari, ehtiyojlari va ko'nikmalarini aniqlash.**
Kuzatishlar bolalarga motivatsiya yaratish va ularning ta'lim ehtiyojlarini to'la qondirish, har bir bolaning qiziqish, ko'nikma va ehtiyojlarini aniqlash, nimani afzal bilishi, tanlash imkoni bo'lganida qaysi faoliyatni tanlashini aniqlash va shaxs sifatida o'rganish imkonini beradi.

***Bolaning rivojlanishidagi vaziyatga eng munosib baho berish.**
Kuzatish shu bolani turlicha ko'radigan kattalarning fikrlarini muvofiqlashtirishga, ularning farazlarini tasdiqlashga yoki rad etishga imkon beradi.

***To'g'ri pedagogik strategiyani tanlash.** Bolalar o'zlari qila oladigan mashg'ulotlarga vaqt sarflamaslik kerak. Balki ular bu ishni biz xohlaydigan sifat darajasida bajarishi muhim. Shuningdek, o'z pedagogik harakatlaringiz samaradorligini (besamarligini) bilish uchun qayta aloqa o'rnatish ahamiyatga ega. Natijada rejaga zarur o'zgartirishlarni kiritish, guruhning rivojlanayotgan makoniga yangi tus berish, oila bilan ishlashni amalga oshirish, individual ish rejasini tuzish mumkin.

***E'tibor talab qiladigan jarayonlarni aniqlash.** Kuzatuvlar kattalarga bolada qanoatlantirilishi kerak bo'lgan alohida ehtiyojlar bor yoki yo'qligini ko'rishga imkon beradi. Bu eshitish, ko'rish, tayanch-harakat tizimi va rivojlanishning boshqa jismoniy va ruhiy xususiyatlari bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin. Agar ular aniqlansa, ota-onalarga o'z vaqtida mutaxassislar, masalan, logoped, psixolog yoki tibbiy xodim bilan bog'lanishni maslahat berish kerak.

***Muammoli vaziyatlarni qanday hal qilish yaxshiroqligini aniqlash.** Kuzatishlar pedagoglarga ma'lum sharoitlarda boladan qanday xatti-harakatni kutish mumkinligini aniqlashni o'rganish imkonini beradi va shu tariqa bolaga o'z xatti-harakatlarini boshqarishni o'rganishga ko'maklashadi. Kuzatishlar kattalarga salbiy reaksiyalar va ularning oqibatlarini oldini olish uchun qaysi vositalarni qo'llash lozimligini aniqlash imkonini beradi. Vaqt o'tishi va o'qitish natijasida bolaning o'zgarish va rivojlanish dinamikasini tushunish. Kuzatuvlar bolalar jismoniy, ijtimoiy, hissiy, bilim jihatdan hamda bolaning nutq va muloqot qobiliyatlari yil davomida qanday rivojlanayotganini ko'rish imkonini beradi, bu esa o'z vaqtida yordam va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, bolalarning shaxsiy ehtiyojlarini qanoatlantiradigan shart-sharoitlar, shakllar va choratadbirlar o'zgarishini maqsadli rejalashtirish imkonini beradi[5].

O'quv muhitiga o'zgartirishlar kiritish. Bolalar o'yin uchun tayyorlangan joylar (rivojlantirish markazlari kabi) va materiallardan qanday foydalanishlarini kuzatib, pedagoglar materiallarning bolalar ehtiyojlarini qondirishi, qo'shimcha materiallarga ehtiyoj bor-yo'qligini aniqlashlari mumkin.

Rejalashtirishga o'zgartirishlar kiritish. Kuzatish yordamida pedagoglar bolalarning ehtiyojlari va individual xususiyatlariga mos ravishda o'quv rejasiga o'zgartirishlar kiritish zarurligini aniqlashlari mumkin. Kuzatishlar yordamida tarbiyachilar ta'lim texnologiyasi guruhdagi barcha bolalarga mos kelishi uchun ta'lim mazmunini yoki shakl va usullarini o'zgartirish zarurligini aniqlashlari mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida savodxonlikka o'rgatish bolalarda elementar o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish vazifasini bajarishga yo'naltirilgan faoliyat turi hisoblanadi. Ota — onalar yoki maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislari qo'llashi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni umumlashtirilish. Ota-onalar bilan birga ishlab, tarbiyachilar oilalarga farzandlari, ularning kuchli va zaif tomonlari hamda alohida ehtiyojlari haqida ko'proq bilib olishga yordam berishi mumkin. Ushbu axborot almashinuvi haqiqiy hamkorlikni yaratadi. Tarbiyachilar va ota-onalar bolani tushunishga va harakatlarini muvofiqlashtirishga erishish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan natijalarni hamkorlikda qo'llashi mumkin. Ular "bevosita ta'lim faoliyati" davomida bolalar egallagan ma'lum bilim va ko'nikmalar qanday o'zlashtirilishi, talqin qilinishi va qo'llanilishini ko'ra oladi.

O'z pedagogik harakatlarining samarali (*yoki samarasiz*) bo'lganligini aniqlash uchun qayta aloqa o'rnatish, ta'limda bola muvaffaqiyatlarining kasbiy, xolisona va ishonchli suratiga ega bo'lish.

O'qish savodxonligi - insonning yozma matnlarni tushunish va ularni tahlil qilish, mazmunidan o'z maqsadlariga erishishda, bilim va imkoniyatlarini rivojlantirishda, ijtimoiy hayotda faol qatnashishda foydalanish qobiliyatidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodxonlikka o'rgatishning asosiy vazifasi bolalarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali to'g'ri, ongli ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, bolalar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqni o'stirish, bilimlar tizimini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini rivojlantirish ham savodga o'rgatish davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bolaning boshlang'ich sinfda ta'lim

olish samarasi uning ona tilini bilishiga va nutqi qanchalik rivojlanganligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5198-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qaroriga 1-Ilova.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.05.2019 y. 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga 1-Ilova.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida»gi 802-sonli Qaroriga 1- Ilova.
5. "Ilk qadam" (takomillashtirilgan) Davlat o'quv dasturi. –Toshkent, 2022 y.
6. SH.A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogikasi" "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti. T.,2013y.